

KHADICHA SULAYMONOVA IS THE FIRST UZBEK FEMALE LAWYER IN THE FIELD OF LAW

Raximjanova Tursunoy

Tashkent state university of law, Faculty of international law and comparative law

Email: tursunoyraximjon@gmail.com

Abstract.

Khadicha Sulaymanova, the first legal scholar among Uzbek girls, can be an example of perseverance and patience for all girls. She achieves what seemed unattainable to her peers and to women of the time. His life path and scientific activity are enviable. His actions and initiatives made even some men of that time think. His achievements during his 52 years of life are admirable and can be a motivation for anyone. Through this article, we will try to explain the life and scientific activity of Khadija Sulaymanova, a lawyer who was the Minister of Justice of the UzSSR, by justifying the above points.

Keywords: Khadicha Sulaymonova, lawyer, Minister of Justice, UzSSR, law.

XADICHA SULAYMONOVA YURIDIK SOHA BO'YICHA BIRINCHI O'ZBEK OLIMA AYOLI

Anotatsiya

O'zbek qizlari orasida birinchi bo'lib huquqshunos olma Xadicha Sulaymonova barcha qizlarga matonat va sabr-toqat namunasi bo'la oladi. Tengdoshchlari va o'sha davr ayollari uchun erishib bo'lmasdek ko'ringan yutuqlarga sazovor bo'lgan. Uning hayot yo'li ilmiy faoliyati havas qilsa arzigelikdir. Ilmiy faoliyati, ko'rsatgan tashabbuslari o'sha davrning ayrim erkaklarini ham o'ylantirib qo'ygan. Uning 52 yillik hayoti davomida qo'lga kiritgan yutuqlari tahsinga sazovor va har bir kishi uchun turtki bo'la oladi. Ushbu maqola orqali yuqorida fikrlarga asoslangan holda O'zSSR Adliya vaziri bo'lgan huquqshunos Xadicha Sulaymonovaning hayoti va ilmiy faoliyatini yoritib berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Xadicha Sulaymonova, huquqshunos, Adliya vaziri, O'zSSR, huquq.

Kirish

Xadicha Sulaymonova har bir ayol erishishni orzu qilgan yutuqlarga erishgan matonatlari o'zbek ayolidir. Uning bolalik davri birinchi jahon urishi, qiyinchiliklarga boy davrga to'g'ri kelganiga qaramay, ilm o'rghanishni tashlamadi, harakatda hech ham to'xtagani yo'q. Uning bolalik yillari og'ir sinovlar bilan o'tgan. O'sha davr urush,

qirg'irbarot va hayotiy qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan. Yuksak natijalarga erishishida uning oilasi ham albatta, katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ziyoli oilada tug'ilgani ham Xadicha Sulaymonovani ilmga bo'lgan qiziqishlarining asosi bo'lib xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyul kuni Andijon viloyatida ziyorolar oilasida tavallud topgan. Otasi Sulaymon Kelgiboy o'g'li o'z davrining bilimdon insonlaridan biri bo'lgan. Sulaymon Kelgiboyev o'z davrida ish boshqaruvchi, tarjimon sifatida ishlab ro'zg'or yuritgan. Lekin Xadicha Sulaymonova otasidan 6 yoshligida ayrıldi. Onasi Otincha ona esa eski maktabda ta'lim olgan, o'qimishli va irodali inson bo'lgan. Oila boshlig'inining vafotidan keyin Xadichalar oilasi Qozog'istonning Mankent shahriga xolasining yoniga ko'chib ketishadi. U yerda rus maktabiga borib o'qigan Xadicha Sulaymonova ilm olib izlanishdan to'xtamaydi.

Olimaning yuridik sohaga qiziqishi XX asrning 20-yillarida paydo bo'lgan. Shu yillarda taniqli san'atkor Nurxonning akasi mutaassiblarning tasiri natijasida singlisini pichoqlab qo'yadi. Sababi o'sha yillarda O'rta Osiyo ayollari taqdirida tub burilish yasagan, ularning turmush tarzi va ijtimoiy faolligi kabi jabhalarni yaxshilash maqsadida ayollarning ko'cha kiyimi paranjini yo'q qilish uchun turli xil harakatlar boshlangan edi. Ana shu harakatlar natijasida 2500 ayol o'z erlari, akalari, otalari tomonidan o'ldiriladi¹. Nurxon Yo'ldoshxo'jayeva ham ana shu qurbanlar safida bo'ladi. Marg'ilonda Nurxonning qotili ustidan ochiq sud majlisi bo'lib o'tadi. Xadicha Sulaymonova manashu sud majlisida ishtirok etadi. O'sha vaqtida u 17 yoshda edi. Shu sud majlisi uning ongida katta ta'sir o'tkazadi. Ana shu paytdan boshlab unda yuridik sohaga qiziqish uyg'onadi.

Huquqshunos bo'lish maqsadida 1931-yil 9 yillik rus maktabini tamomlab poytaxtga yo'l oladi. O'sha davrda yangi tashkil etilgan Jahon Obidova nomidagi sovet qurilishi va huquq ilmiy tadqiqot institutida bir yillik tayyorlov kursini tamomlab, huquq fakultetining ikkinchi kursiga qabul qilinadi. Yaxshi o'qib, bilimini oshirishga, yuridik sohani chuqur o'rganishga qattiq bel bog'laydi. O'sha davrda hali yuridik soha rivojlanmaganligi sababli, uning va kursdoshlari yelkasida nihoyatda mas'uliyatlari vazifa turgan davrda Xadicha Sulaymonova ustozlarining bilimi chuqur egallab o'qishini tamomlaydi. Lekin bundanda yuqori natijalarni ko'zlagan Xadicha uchun bu yetarli emas edi. Shu sabab o'qishini davom ettirishni niyat qiladi. Lekin o'qishni bitirishi bilanoq tuman sudiga sudya qilib yuboriladi. Bilimli, izlanuvchan bo'lganligi sababli shu yiliyoq Oliy sudiga a'zo qilib yuboriladi. O'sha davrda Xadicha Sulaymonova endigina 22 yoshda edi.

Tarix sahifalaridan ma'lumki, 1930-yillar og'ir kunlarni o'z ichiga oladi. Odamlarni qo'rquvda tutish uchun qizil imperiya o'ziga yoqmaganlarni qatag'on qilib,

¹ "O'zbek ayoli paranjini qanday tashladi? "Hujum" harakati haqida," Daryo.uz., accessed April 29, 2024, <https://daryo.uz/2019/10/01/ozbek-ayoli-paranjini-qanday-tashladi-hujum-harakati-haqida>

odamlarni uzoq muddatga qamash va otib tashlash uchun noqonuniy yo'llar bilan sud va tergovlarsiz jazoga tortadigan “Uchlik”, “Alovida kengash” degan guruhlar to'qib chiqarishgan davrda Xadicha Sulaymonova yashagan va ishlagan.

Arxiv hujjatlaridan ko'rinishicha, shunday davrda ham Xadicha Sulaymonova qonunga xilof ravshda olib borilgan tergov ishlariga prinspiallik va xolislik bilan yondashib, barcha uchun adolatli qaror qabul qilgan.

Olima chuqurroq ilm olish maqsadida o'qishini davom ettirishni istaydi. Shu maqsadda aspiranturada o'qish uchun 1938-yil Moskva yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasi apperanturasiga qabul qilinadi.

Ushbu davr mobaynida “Xarbiy intervensiya va grajdalar urushi davrida O'zbekistonning jinoyat qonunlari” mavzusida ilmiy ishni tayyorlashga kirishadi. Asperanturaning ikkinchi yilidayoq disertatsiya uchun barcha materiallarni yig'ib qo'yadi. Lekin ikkinchi jahon urishi davriga tog'ri kelgan bu vaqtida u ilmiy ishini tamomlashga ulgurmay qoladi. Shundan so'ng aspirantlarni ko'pchiligi urushga jo'natiladi. Xadicha Sulaymonova esa Toshkent yuridik institutiga ishga jo'natiladi. 4 yil davomida yuridik institutda dars beradi. Kunduzi institutdagi darslar bilan tunda esa disertatsiya yozish bilan shug'ullanadi. Ilmiy izlanishlar natijasida 1945-yil o'zbek huquqshunos ayollari orasida birinchilardan bo'lib olima ayol nomiga sazovor bo'ladi. Ya'ni 1945-yil SSSR Adliya komissarligi huzuridagi butunitifoq yuridik fanlar institutida disertatsiyasini muvaffaqiyatli yakunlaydi.

Xadicha Sulaymonova 1948-yil SSSR Fanlar akademiyasining huquq institutiga doktoranturaga o'qishga kiradi. Ushbu vaqt mobaynida sud organlari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan O'zbekiston SSRda sovet sudlari tashkil topishi tarixi bilan bog'liq ilmiy maqolalarni e'lon qiladi. U o'zining ilmiy disertatsiyasida Islom dini normalari bilan aloqador bo'lgan mahalliy odat normalarini ham muhokama qilib o'tadi. Ayrim o'rnlarda qozilik sudlarining ayrim normalaridan foydalanish mumkinligi haqida ham to'xtalib o'tadi. Bunday fikrlar yuritish o'sha davrda havfsiz bo'lmasa ham Xadicha Sulaymonova yuqorida kabi fikrlarni aytishga qo'rqlaydi. Olima 1950-yil “O'zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusidagi doktorlik disertatsiyasini himoya qiladi va shundan boshlab u Toshkent yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasi professori bo'ladi. U doktorlik disertatsiyasida O'zbekistonda jinoyat huquqi paydo bo'lishi va rivojlanishi mavzulariga to'xtalishdan avval o'zbek xonliklari va mustamlaka jinoyat qonunchiligining asosiy xususiyatlarini o'zganib chuqur tahlil qilib chiqadi. Xadicha Sulaymonova xonliklar davridagi jinoyat huquqlari mavzusini to'laqonli ochib berib, Sho'rolar hokimiyati o'rnatilgandan keyin jinoyat huquqi, sudlarning vujudga kelishi va boshqa shu kabi mavzular yuzasidan asarlar yaratdi.

Bundan tashqari Xadicha Sulaymonova ilmiy tadqiqotlarining o'ziga xos jihatni shundaki, jinoyat huquqining O'zbekistonda paydo bo'lishi va rivojlanishi kabi

masalalar bilan birgalikda 1926-yilning iyun oyida kuchga kirgan birinchi O'zbekiston jinoyat kodeksiga mukammal tafsif beradi. Jinoyat kodeksidagi moddalar va normalarni sharxlar ekan o'sha davr uchun xarakterli bo'lgan jinoyatlar va qonunbuzarliklarga nisbatan qo'llash amaliyotini ham ko'rsatib ketadi.

Xadicha Sulaymonova hayotida 1954-yilda ikki muhim yangilik yuz beradi. Birinchisi "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni bilan taqdirlanadi. Ikkinchisi 1954-yilda Toshkent yuridik institutiga direktor qilib tayinlanadi. Lekin 1955-yilning iyul oyida yuridik instituti tugatilib, O'rta Osiyo universitetining yuridik fakultetiga aylantiriladi va Xadicha Sulaymonova fakultet dekani vazifasida ishlash bilan birgalikda Jinoyat huquqi kafedrasiga mudirlik qiladi.

Olima Respublikada juda ko'plab adolatli va shu bilan birga savobli ishlarga qo'l uradi. Uning aql idroki va bilimi shu qadar kuchli, har bir qilayotgan ishi esa adolatli ekanini jinoyatchini qilgan qilmishidan ko'p ham kam ham jazo olishini istamaganligidan va bu masalaga juda qattiq yondoshganidan bilishimiz mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, tarixda o'zbek xalqining ko'plab farzandlari qatag'on qilinib, nomlari nohaq qoralangan. "Xalq dushmani" degan nom bilan otib tashlanar yoki qamoqxonalarda aybi nima ekanligini bilmasdan umri tugardi. Xadicha Sulaymonova o'zbeklarning mana shunday yolg'on ayblovlar bilan qoralanayotgan farzandlarini oqlashda o'zining katta xissasini qo'shgan. 1956-yili Markaziy komiteti siyosiy byurosi huzurida 1937-1938-yillardagi "Katta terror"da qatag'on qilinganlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha komissiya tuzilgan². Uning a'zolari qilib O'zbekistondan ikki kishi tayinlangan. Ulardan biri N.A. Muhitdinov, ikkinchisi akademik yurist Xadicha Sulaymonova edi. Ikki yurdoshimiz nohaq qatag'on qilingan hamyurtlarini aybsiz ekanliklarini dalillar asosida isbotlab Moskva bosh prokurori R.A. Rudenkonni qoyil qoldirishadi. Xadicha Sulaymonovaning aql-idroki, bilimi natijasida 30-yillarda O'zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi lavozimida faoliyat yuritgan Akmal Ikromov va O'zbekiston Xalq Komissarllari Sovetining raisi bo'lgan Fayzulla Xo'jayevlar oqlanadi. O'sha yillarda hammasi bo'lib O'zbekistonda 40 mingga yaqin to'qib chiqarilgan aybnomalar bilan xalq dushmani deb otilgan yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan kishilar oqlanadi. Bularning barchasida Xadicha Sulaymonovaning unutilmas hissasi bor³.

Ministrlar Sovetining raisi Nuritdin Akramovich Muhitdinov Xadicha Sulaymonovani Adliya vaziri lavozimiga tavsiya etadi. O'sha davrlarda qandaydir lavozimga tayinlash uchun kishining bilimi, salohiyati yoki aqli emas, uning partiyaga a'zo yoki a'zo emasligi muhim masala edi. Xadicha Sulaymonova esa u paytda partiyaga a'zo bo'limganligi uchun Adliya vaziri lavozimiga tasdiqlanmaydi. Shundan

² O'zbekning olma ayoli Xadicha Sulaymonova <https://library-tsul.uz/ozbekning-olima-ayoli-xadicha-sulaymonova/>

³ Uch mashxur o'zbek ayoli. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2022.

so'ng olima partiya a'zoligiga qabul qilinadi va 1956-yil 17-sentabrda Adliya vaziri lavozimida ish boshlaydi. U vazirlik faoliyati davomida Adliya vazirligi sohasiga ko'plab yangiliklarni tatbiq etdi. Jumladan:

- “Ish jarayonida vujudga keladigan masalalari tezkorlik bilan hal qilish, vazirlik hay'ati muhokamasiga kiritilgan o'ta muhim masalalarni hay'at a'zolarining fikr-mulohazalari asosida kollegial tartibda hal qilish amaliyoti;
- Hay'at muhokamasiga faqat amaliy masalalarnigini emas, mulkni o'g'irlash, transport halokatlari bezorilik va boshqa shu kabi masalalar yuzasidan moddiy va protsessual huquq normalarini to'g'ri qo'llash bilan bog'liq bo'lgan nazariy masalalarni aloqador idora va tashkilotlar vakillarining ishtirokida muhokama qilish va qabul qilingan qarorlarni sud organlariga yuborish tartibi va shu kabi muhim o'zgarishlarni amaliyotga tadbiq etadi va bu o'zgarishlar ko'p vaqt o'tmay o'z samarasini beradi.⁴”

Uning qat'iyatliligi va talabchanlik qobiliyati sababli o'sha paytda Adliya vazirligida ishlagan Galina Tansiqboyeva quyidagicha yozadi: “Xadicha Sulaymonovaning qat'iyatlilik va talabchanlik qobiliyati meni har doim lol qoldirgan edi. Undagi bu qobiliyat yuqori lavozimdagи kishilar, tajribali amaliy xodimlar ishtirok etadigan Adliya vazirligi hay'atining maslislarida, ayniqsa, ko'zga tashlanib turar edi...”

1956-yil Xadicha Sulaymonova hayotida bo'lgan yana bir quvonchli voqeа O'zbekiston Respublikasi Fanalar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylanadi va akademik degan yuksak ilmiy darajaga ega bo'ladi.

Xadicha Sulaymonova o'zining ilmiy faoliyati davomida ko'plab chet el davlatlariga ilmiy safarlar bilan tashrif buyuradi. Uning birinchi tashrifi 1956-yil Gollandiyaning Amsterdan shahriga bo'lib, sotseallarning uchinchi xalqaro kongressida ishtirok etadi. Ushbu tashrifida O'rta Osiyo Respublikalarida oilaviy munosabatlar mavzusida maruza qiladi. Olima maruzasida muslimon oila huquqi normalarini oila huquqining shakllanishi va rivojlanishi bilan qiyoslab beradi.

Shundan so'ng u ilmiy tashriflar bilan London, Birlashgan Arab Respublikasi, Tokio, Qohira, Gana va boshqa ko'plab davlatlarga tashrif buyuradi. Xadicha Sulaymonova qayerga bormasin O'zbekiston fani va u erishga yutuqlari, mehnatkash xotin-qizlarimizning yashash va ishlash tarzi haqida ishtiyoq bilan maruzalar qiladi. Bu kabi harakatlari bilan xalqaro do'stlik ko'priklarini qurishga katta hissasini qo'shgan.

Xadicha Sulaymonova 1964-yil O'zbekiston Oliy sudi raisi lavozimiga saylanadi. Ana shu yili aprel oyida ro'znomalarning birida xotin-qizlar davlatning yirik rahbarlik sohalarida faoliyat yuritayotganlari haqida maqola bosilib chiqadi va ular orasida Xadicha Sulaymonova ham bor edi. Oliy sudda faoliyati davomida

⁴ Uch mashxur o'zbek ayoli. –T.:”Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022.

huquq-targ’ibot ishlarini zamonaviy ilmiy asosda tashkil etishga, amaliyat bilan nazariyani uyg’unlahstirishga harakat qilgan. Shu maqsadda Respublika Oliy sudi huzurida jamoatchilik asosida ilmiy-konsultativ kengash tashkil qilinadi. Kengash ko’p yillar davomida tajribali va bilimli yuristlar tarkibi bilan samarali faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Xadicha Sulaymonova asossiz qattiq jazo choralarini qo’llashga qarshi bo’lgan, chunki qonunchilik shavqatsiz jazo qo’llash bilan emas, uningadolatliligi bilan mustahkamlanadi, deb hisoblardi va shuning uchun ham sudyalardan har bir jinoiy ishni ko’rishda o’z shaxsiy javobgarligini oshirishni talab qilgan. U har qanday jinoyatning kelib chiqish sababiga, xavflilik darajasiga nafaqat huquqshunos balki huquq fanining nazariy jihatlarini teran anglaydigan olim nigohi bilan qaraydi. Uning qilgan ilmiy faoliyati, Respublika uchun ko’rsatgan xizmatlari, har bir qadamlari nafaqat qizlar uchun balki barcha insonlar uchun o’rnak qilsa azrigulikdir.

U 1965-yil 26-noyabrda 52 yoshida o’g’ir xastalikdan vafot etadi. “Sovet O’zbekiston” gazetasi 1968-yilgi sonida yozilishicha Xadicha Sukaymonova: “Menga hech bo’lmasa yana bir yilcha umr kerak edi, bir yil... ilmiy fikrlarimni yozib qoldirish uchun” degan ekan. Yosh bo’lishiga qaramay yirik olma darajasiga yetgan Xadicha Sulaymonova qolgan bir yilni ham o’zining shaxsiy hayoti uchun emas, balki ilm-fan uchun bag’ishlamoqchi bo’ladi. Yuqori malakali huquqshunos olma, davlat va jamoat arbobi, akademik Xadicha Sulaymonova qisqa, lekin sermazmun hayot yo’li o’zbek xalqiga ibrat namunasidir. Xadicha Sulaymonova xotirasiga hurmat va uni abadiylashtirish maqsadida 1958-yil Xadicha Sulaymonova tashabbusi bilan tashkil etilgan sud-ekspertiza ilmiy-tadqiqot markaziga Xadicha Sulaymonova nomi berilgan. Bundan tashqari ularning ilmiy faoliyatini keng targ’ib qilish, akademik Xadicha Sulaymonovaning ilm-fan rivoji, huquqiy davlat barpo etishdagi harakatlari, ibratli hayot yo’li, ilmiy-madaniy merosini o’rganish va targ’ib qilishda faollik ko’rsatayotgan, bilimli, ijtimoiy faol va jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirishda munosib ishtirok etib kelayotgan talaba va o’quvchilarni munosib rag’batlantirish maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan akademik Xadicha Sulaymonova tavalludining 110 yilligi munosabati bilan Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya tasis etilgan. Bu kabi tadbirlar butun o’zbek yoshlariga va o’zbek xalqiga mana shunday fidoyi va intiluvchan farzandlari bo’lganini ko’rsatishga katta yordan beradi.

References

Books

1. Z.N.Talipova, M.S.Talipova (2023). O’zbekning Olima Ayoli Xadicha Sulaymonova “TSUL Library”

2. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar olivy kengashi (2022). Uch Mashxur O'zbek Ayoli. –T.:”Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”

The internet sources:

1. “O'zbek ayoli paranjini qanday tashladi? “Hujum” harakati haqida,” Daryo.uz., accessed April 29, 2024, <https://daryo.uz/2019/10/01/ozbek-ayoli-paranjini-qanday-tashladi-hujum-harakati-haqida>